



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Z.Z.Yaxshiyeva<sup>1</sup>

Y.T.Axmадjonova<sup>2</sup>

U.T.Axmадjonova<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Jizzax davlat pedagogika instituti professori

<sup>2,3</sup> Jizzax politexnika instituti assistentlari

## TA'LIM SIFATINI BAHOLASH XORIJ TAJRIBASI MISOLIDA O'RGANILMOQDA

**Annotasiya.** Respublika xalq ta'lifi tizimi ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etdi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, xalqaro baholash dasturi, xalqaro tadqiqotlar, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, kontseptsiya.

**Аннотация.** Система народного образования республики организует международные исследования в области оценки качества образования, налаживает международные связи, всесторонне поддерживает исследовательскую и инновационную деятельность студентов, прежде всего творческие идеи и творчество

подрастающего поколения. организовал международные исследования по международным программам оценки для поддержки и поощрения.

**Ключевые слова:** качество образования, международная программа оценки, международные исследования, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, концепция.

Ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Xalq ta'limi vazirligi ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

2022-yilda o'quvchilar bilimi PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlanadi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari mamlakatimiz ta'lim tizimini boshqa davlatlar bilan solishtirish va kamchiliklarini aniqlashga ko'mak beradi.[1,307- b]

2019-yil apreliida O'zbekiston Prezidenti 2030 yilga qadar Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirish hamda o'qitish metodikalarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada talabalar o'zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti -PISA reytingiga ko'ra O'zbekiston 2030 yilga qadar jahonning 30 ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.[3,762-b]

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va mакtabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalar o'rganib chiqildi.[2,1040]

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.[4,10-b]

PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish va yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'limganda 2 maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlash.

Ikkinchisi, Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarini yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lif jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun biz o'qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta'lifning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lif jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak.

### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Siddikova Sh. A., Axmadjonova Yo. T., Yaxshieva Z.Z. PISA - a criteria for improving the quality of education //Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), ISSN (E): 2347-6915 ,Vol. 9, Issue 5, May (2021), pp.306-308
2. Ziyatovna, Y. Z., Tojimurodovna, A. Y., & Akhmedovna, S. S. (2021). The Concept and Principles of Nature Pollution Monitoring. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 1038-1043.
3. Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Agrosanoat majmuasi tarmoqlarini rivojlantirish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector, pp.761-763.
4. Akhmadzhonova, Y. T., & Yakhshieva, Z. Z. (2020). Effects of heavy toxic metals on water quality. Science and Education No, 7, 8-11.
5. Akhmadjonova, U. T., Akhmadjonova, Y. T., & Yakhshieva, Z. Z. (2021). Technogenic Transformations of the Aidar-Arnasay Lake System and Their Geological Consequences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3271-3275.